

## INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI

Ibragimova Madina Ismoilovna

Mustaqil izlanuvchi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ta'lim turizmining roli yoritib berilgan. Jumladan, ta'lim turizmi turizm sohasining serqirrali turlaridan biri ekanligi, yuqori iqtisodiy samara keltiruvchi, hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi soha ekanligi ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, turizm, ta'lim turizmi, malaka oshirish, milliy daromad.

### ABSTRACT

*This article highlights the role of educational tourism in shaping an innovative economy. In particular, it was noted that educational tourism is one of the most diverse types of tourism, which is highly cost-effective and serves to improve the quality of education.*

**Keywords:** innovative economy, tourism, educational tourism, training, national income.

### АННОТАЦИЯ

*В статье освещается роль познавательного туризма в формировании инновационной экономики. В частности, было отмечено, что познавательный туризм - один из самых разнообразных видов туризма, который отличается высокой рентабельностью и служит повышению качества образования.*

**Ключевые слова:** инновационная экономика, туризм, познавательный туризм, обучение, национальный доход.

### KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyatida yashovchi har bir insonga o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yangi bilimlarni tezkor ravishda o'zlashtirishga bo'lgan katta ehtiyoj - barcha mamlakatlar fuqarolarining nafaqat o'z mamlakatida, balki xorijiy davlatlarda ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishga yo'naltiradi, ta'lim va fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga turki bo'ladi.

Butun jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra «2019 yilda barcha kiruvchi turistlar soni 1,460 mln.ga yetdi, undan kelgan daromad esa 1,481 mlrd.

AQSh dollarni tashkil etganligi, dunyo miqyosida turizm sohasi 334 mln. yangi ish o‘rinlari yaratgan»<sup>1</sup> ligi turizm jahon iqtisodiyotida juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ta’lim turizmi turizm sohasining serqirrali turlaridan biri sifatida til o‘rganish, ta’lim olish, malaka oshirish, kasb-hunar o‘rganish, anjumanlarda ishtirok etish, sport turlarini o‘rganish kabi ko‘p kiruvchi va chiquvchi ta’lim turizmi yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishda har qanday xorijiy mamlakatdan qolishmaydigan imkoniyatlarga va hali ro‘yobga chiqmagan salohiyatga ega. Shu bois turizmnning ushbu turini jadal rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotda katta muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yildan boshlab, hozirgi kunga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm turlarini tashkil toptirish, infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o‘z ijobjiy natijalarini bermoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil BMTning 72-assambleyasida ta’kidlagandek “mustaqil o‘lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e’tirof etilishi”<sup>2</sup> dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o‘zaro do‘stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishiga, turizm borasida aytadigan bo‘lsak, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishiga, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o‘zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tadqiqotlar natijalari boshqa iqtisodiy tarmoqlarda bo‘lgani kabi, turizm sohasida ham yuqori iqtisodiy samara berishga molik yangi yo‘nalishlarning shakllanayotganligini ko‘rsatdi. Turizm sohasida bunday keng imkoniyatlarga ega istiqbolli sohalaradan biri ta’lim turizmi hisoblanadi. Keyingi davrlarda dunyoning barcha mamlakatlarida turizmning ushbu shakli tobora tez rivojlanib, kengayib bormoqda. Chunki innovation iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida bilvosita va bevosita o‘qish davomida ta’lim olishga ehtiyoj kuchayadi. Innovation iqtisodiyotda har bir shaxsning sifatli ta’lim olishga bo‘lgan xohishi yoki qo‘srimcha malaka oshirishga ehtiyoji ta’limga bo‘lgan talabni keltirib chiqaradi, uni rivojlantirish va takomillashtirishga asos bo‘ladi.

<sup>1</sup> World Tourism Barometer, Volume 18, Issue 1, January 2021

<sup>2</sup> <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

O'tkazilgan tahlillar 2019 yilda, aksariyat davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham turizm sohasida o'sish sur'atlari YaIMning o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganligini ko'rsatdi. Lekin shunga qaramasdan, O'zbekistonda turizmning YaIM mahsulotdagi va ish bilan band aholi sonidagi ulushi bo'yicha boshqa davlatlardan juda orqada ekanligi ayon bo'ldi (jadval- 1).

### **1-jadval**

Jahon mamlakatlari va O'zbekistonda turizm rivojlanishining qiyosiy tahlili<sup>3</sup>

t/r	Mamlakat nomi	Mamlakat bo'yicha o'sish sur'atlari (2019 yil 2018 yilga nisbatan), %		Turizm xizmatlari sohasining mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushi, % (2019 yil)		Turistik xizmatlar eksporti (2019 yil)	
		YaI M hajmi	jumladan, turizm xizmatla- ri sohasi	YaIM tarkibi	Iqtisodiyotda band aholi tarkibida	xizmatlar eksporti, mlrd.doll.	jam'i eksportda gi ulushi, %
1.	AQSh	2,3	2,3	8,6	10,7	256,1	10,1
2.	Xitoy	6,1	9,3	11,3	10,3	40,4	1,5
3.	Yaponiya	0,9	1,6	7,0	8,0	45,3	4,9
4.	Germaniya	0,6	1,8	9,1	12,5	60,3	3,2
5.	Italiya	0,1	2,2	13,0	14,9	51,6	7,9
6.	Buyuk Britaniya	1,3	1,3	9,0	11,0	48,5	5,5
7.	Fransiya	1,2	1,9	8,5	9,4	73,1	8,0
8.	Turkiya	0,1	10,1	11,3	9,4	37,1	15,6
9.	Ispaniya	2,0	1,8	14,3	14,6	81,3	16,3
10.	Tailand	2,3	1,8	19,7	21,4	65,2	19,9
11.	Filippin	5,9	8,6	25,3	24,1	9,7	10,8
12.	Avstraliya	1,8	0,8	10,8	12,8	47,3	14,5
13.	Rossiya	1,1	0,6	5,0	5,6	18,7	3,7
14.	O'zbekiston	5,7	12,3	4,5	4,6	1,3	9,3
	<b>Jahon bo'yicha</b>	<b>2,5</b>	<b>3,5</b>	<b>10,3</b>	<b>7,5</b>	<b>1313,0</b>	<b>7,0</b>

<sup>3</sup> <https://wttc.org/Research/Economic-Impact> расмий statistik маълумотлар асосида муаллиф томонидан хисобланди.

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda turizm o'ta muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni YaIM va iqtisodiyotda band aholi soni bo'yicha jahon xo'jaligi erishgan darajadan sezilarli darajada pastligidan dalolat beradi. Masalan, agar jahon xo'jaligi bo'yicha turizm sohasining YaIMdagi ulushi 10,3 foizni, iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushi 7,5 foizni tashkil etgan bo'lib, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 4,5 va 4,6 foizni tashkil qilgan. O'zbekistonda turistik xizmatlar sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi Italiya ko'rsatkichlaridan qariyb 3 marta, Ispaniyadan 3,2 marta, Taylanddan 4,3 marta, Filippin mamlakatidan esa 5,6 marta past. Turizm xizmatlari sohasida bandlarning iqtisodiyotda band aholi sonidagi tarkibi bo'yicha xam deyarli shunday ahvolni kuzatish mumkin. Ushbu raqamlar O'zbekiston ulkan turistik salohiyatga ega bo'la turib, uni ro'yobga chiqarish va milliy daromadni shakllantirishning asosiy manbalaridan biriga aylantirish imkoniyatlaridan unumli foydalana olmayotganligidan dalolat beradi.

Ayni paytda, jadval ma'lumotlariga tayangan holda yana boshqa bir muhim xulosa ham chiqarish mumkin. Ushbu xulosa shundan iboratki, keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida davlatning turizmni milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan tarmoqlaridan biriga aylantirish borasidagi diqqatga loyiq siyosati o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Sababi turizm xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari 2019 yilda oldingi yilga nisbatan 12,3 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyo mamlakatlari o'rtasida birinchi o'rinni egallashga erishgan. Turizm xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari Rossiyada 0,6, Avstraliyada 0,8, Buyuk Britaniyada 1,3 foizni, jahon bo'yicha 3,5 foizni tashkil etgan bir paytda ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda 12,3 foizni tashkil etganligini alohida qayd etish lozim. Turizm xizmatlari hajmining bunday yuqori sur'atlar bilan o'sishi va O'zbekistonda turizmni taraqqiy ettirish konsepsiyasida belgilangan maqsadli vazifalarning izchil bajarilishi kelajakda u mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanishi muqarrar, degan yakuniy xulosa chiqarish imkonini berdi. Turistik xizmatlar eksporti bo'yicha ham O'zbekiston oxirgi o'rnlarda turadi. 2019 yilda jahon bo'yicha turizm xizmatlari eksportining jami eksportdagi ulushi 7,0 foizni, xizmatlar eksportidagi ulushi esa 29 foizni tashkil etgan.

## **XULOSA**

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiy sohada yangi kursni, ya'ni iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan innovation rivojlanish yo'lini tanlagan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishda tarkibiy o'zgarishlar, sifat o'zgarishlari va yangicha yondashuvlarni nazarda tutadi. Bunda ijodkorlikka, ma'lumotni tezkor qayta ishlash qobiliyatiga, eng muhim, olingan

ko‘nikmalardan professional tarzda foydalanishga tobora ko‘proq e’tibor qaratiladi. Shuning uchun, to‘laqonli va samarali faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim turizmi xizmatlari bozorining bo‘lishi mamlakat ravnaqining va jahon bozorida ishlab chiqarishning yuqori darajasi va raqobatbardoshligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda «Harakatlar strategiyasi»ga muvofiq izchillik va katta qat’iyat bilan amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalar doirasida, bir tomonidan, ta’limni rivojlantirish, ikkinchi tomondan, turizmni jadal rivojlantirish siyosati birlgilikda ta’lim turizmini rivojlantirishda o‘z ifodasini topadi.

## **REFERENCES**

1. Асланова Д.Х., Ибрагимова М.И. ва бошқ. Тольковый словарь (терминов детско-юношеского и молодёжного туризма). // Луғат. -Самарқанд.: Зарафшон, 2015. – 120 б.
2. Мухаммедов М.М., ва бошқ. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. // Монография. – Самарқанд.: Зарафшон, 2017. – 275 б.
3. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебное пособие для ВУЗов. – М.: Аспект Пресс, 2001. – 464 с.
4. Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. // Монография. –Т.: Иқтисодиёт, 2015. – 282 б.
5. Ибрагимова М.И. Таълим туризмини ривожлантириш истиқболлари. // “Туризм хизматлар бозорини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани. – Самарқанд: Самиси. 2014.. –Б.371-373.